

**Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish
evaziga moliyalash shartnomasi № _____**

(Faktoring)

“ ” 20__ yil

(tuzilgan joy)

Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" ATB (bundan buyon matnlarda “kafil/moliya agent” deb nomlanadi) nomidan “ ” 20__ yildagi № _____-sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi bankning _____ filiali boshqaruvchisi/BXO boshlig'i _____ bir tarafdin va (bundan buyon matnda “Mijoz” deb yuritiluvchi) _____ nomidan Nizom (*Guvohnoma, Ishonchnoma*) asosida ish yurituvchi _____ ikkinchi tarafdin, ushbu shartnomani (bundan buyon matnda shartnoma deb yuritiladi) quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1 Mazkur shartnoma moliya agenti, to‘lov katta qismini darhol kompensatsiyalash, qarzlarni to‘liq so‘ndirilishini kafolatlash, hisobvaraqlarni yuritish xarajatlarini pasaytirish (faktoring) imkoniyati bilan _____ (keyingi o‘rinlarda-“to‘lovchi”) dan yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar uchun akseptlangan, lekin to‘lov talabnomalari bo‘yicha haqi to‘lanmagan to‘lovga bo‘lgan talab qilish huquqini, mijozdan regress huquqisiz sotib olishni nazarda tutadi hamda faktoring xizmati ____ kun muddatga ko‘rsatiladi.

2. Shartnoma bahosi

2.1 Mijoz tomonidan moliya agentiga shartnomaga asosan o‘tkazib berilayotgan talabnoma summasi _____ so‘mni tashkil qiladi. Moliya agenti tomonidan ko‘rsatilayotgan faktoring xizmati bo‘yicha diskounti _____ so‘mdan iborat. To‘lov mijozning to‘lov topshiriqnomasi yoki moliya agenti tomonidan mustaqil holda memorial orderi orqali olinadi.

3. Tasdiqlash va kafolatlar berish

3.1 Mijoz yuridik shaxs-tadbirkorlik subyekti bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan/ro‘yxatdan o‘tkazilgan, o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy layoqatga ega.

3.2 Mijoz kafilga taqdim etgan kredit olish bilan bog‘liq bo‘lgan zaruriy hujjatlar haqiqiyliги, ma’lumotlarning ishonchliligi va hujjatlarning nusxalari asliga to‘g‘riligini kafolatlaydi.

3.3 Mijoz to‘lovchida muddati o‘tgan kreditorlik qarzining yo‘qligini kafolatlaydi.

3.4 Shartnoma tuzayotgan vaqtda, mijoz xato fikrlar, yolg‘on, zo‘ravonlik, tahdidlar, yomon niyatli kelishuv yoki og‘ir holatlarning to‘g‘ri kelib qolishi ta’sirida emas.

3.5 Tasdiqlash va kafolatlar berish bo‘limiga, mijoz to‘liq amal qilishi lozim. Ushbu bo‘limga amal qilinmagan yoki lozim darajada amal qilinmagan taqdirda moliya agenti mijozga faktoring xizmati ko‘rsatishdan bosh tortishga haqli.

3.6 Mijoz bilan aloqa bog'lash usuli: mazkur shartnomaning XIII bobida ko'rsatib o'tilgan rekvizitlar, shu jumladan cheklanmagan holda mijozning yuridik manzili _____, telefon raqami: _____ (vakilning uyali aloqa raqami).

3.7 Moliya agenti bilan aloqa bog'lash usuli: mazkur shartnomaning XIII bobida ko'rsatib o'tilgan rekvizitlar, shu jumladan, cheklanmagan holda 0 800 1 200 200 hamda 1256 (pullik) raqamlar.

4. Mijozning huquq va majburiyatlari

4.1 Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

4.1.1 garov ta'minoti yuzasidan baholovchi va sug'urta kompaniyasini o'z ixtiyoriga asosan tanlash;

4.1.2 faktoringdan foydalanish, uni so'ndirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha moliya agentining mansabdor shaxslariga murojaat qilish;

4.1.3 shartnoma va qo'shimcha shartnomalarni imzo qo'ymasdan oldin tanishib chiqish uchun o'zi bilan olib ketish;

4.1.4 shartnoma yoki qo'shimcha shartnoma tuzilgandan keyin va pul mablag'lari olingunga qadar bo'lgan davrda kredit olishdan bepul asosda voz kechish;

4.1.5 faktoring ajratish jarayoni yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talab va qoidalar to'g'risida kreditoridan maslahatlar olish;

4.1.6 moliya agenti tomonidan shartnomada ko'zda tutilgan kredit uzrli sabablarsiz yoki kechiktirib ajratilgani uchun neustoyka to'lashni talab qilish;

4.1.7 faktoring hisob raqamidagi aylanmalar to'g'risida ma'lumotlar olish;

4.1.8 qonun hujjatlarida belgilangan nizoni sudgacha hal qilish usullarini, shu jumladan muzokaralar o'tkazish orqali, qo'llash.

4.2 Mijozning majburiyatlari quyidagilar:

4.2.1 mijoz o'zining sof aktivlari qiymatining 10 % miqdoriga teng va undan yuqori tovarlar, ishlar va xizmatlar (shu jumladan, moliyaviy majburiyatlar: lizing, qarz va kredit shartnomalari, kafillik va garov) bilan bog'liq bo'lgan bitimlar tuzishdan oldin moliya agenti bilan kelishish;

4.2.2 moliya agentining to'lovchidan olgan pul mablag'lari, mijozning talabnomadan boshqa shaxs foydasiga voz kechish bilan ta'minlangan qarzi summasidan kam bo'lib chiqsa, mijoz qarzning qoldig'i uchun javobgar bo'ladi;

4.2.3 mijoz to'lov talabnomasiga faktoring deb belgilangan tartibda o'zgartirishlar kiritadi, to'lov talabnomasini to'lovchi tomonidan akseptlatadi, to'lovchining bankidan to'lov talabnomasining 2-son kartotekaga qabul qilinganligi to'g'risidagi yozma ma'lumot yetkazib berish;

4.2.4 mazkur shartnoma taraflar tomonidan imzolangan kundan boshlab 3 (uch) ish kunida to'lovchini mazkur faktoring shartnomasi imzolanganligi haqida yozma tarzda yoki to'lovchini imzo orqali tanishtirgan holda yoki buyurtma xat orqali (xatni qabul qilganligi tasdiqlovchi hujjat asosida) ogohlantirish;

4.2.5 O'zbekiston Respublikasi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq qonunchilik hujjatlarida

nazarda tutilgan hollarda, moliya agentining so‘roviga asosan ma’lumot/hujjat, tushuntirish taqdim qilish.

5. Moliya agentining huquq va majburiyatlari

5.1 Moliya agenti quyidagi huquqlarga ega:

- a) mijoz tomonidan _____ sonli “_____” _____ 20__yilda qo‘yilgan _____ so‘mlik to‘lov talabnomani talab qilib olish huquqi va uni tasdiqlovchi hujjatlarni moliya agentiga __ kun muddatda topshirilishini talab qilish;
- b) faktoring summasiga nisbatan _____% miqdorida diskont haqi hisoblaydi. Diskont summasi shartnomada belgilangan muddatlarda yoki oraliq to‘lovlar summasiga mutanosib ravishda mijoz ishtirokisiz moliya agenti daromadiga o‘tkazilib undirib borish;
- c) to‘lov talabnomasiga “faktoring” deb belgilangan tartibda o‘zgartirishlar kiritilmagan, to‘lov talabnomasi to‘lovchi tomonidan akseptlanmagan, to‘lovchining bankidan to‘lov talabnomasining 2-son kartotekaga qabul qilinganligi to‘g‘risida ma’lumot olinmagan taqdirda, faktoring bo‘yicha mablag‘larni o‘tkazmaslik;
- d) mijozdan pul talabnomasining haqiqiyligini tegishli hujjatlar asosida isbotlab berishni talab qilish;
- e) agar to‘lovchi tomonidan to‘lov talabnoma bo‘yicha majburiyatlar bajarilmagan yoki tegishli darajada bajarilmagan taqdirda to‘lovchiga nisbatan amaldagi qonunchilikka asosan da’vo qo‘zg‘atish;
- f) moliya agentiga pul talabnomasini topshirish huquqi berilgandan so‘ng, to‘lovchi bu huquqni bajarmaslikka haqli bo‘ladigan vaziyatlardan bexabar bo‘lsa, boshqa shaxs foydasiga voz kechish narsasi bo‘lgan pul talabnomasiga nisbatan huquqini saqlab qolish;
- g) mijozni lozim darajada tekshirish bilan bog‘liq bo‘lgan to‘liq yoki qisman xorijiy tilda tuzilgan hujjatlar davlat tiliga yoki rus tiliga tarjimai bilan talab qilish, gumonli va (yoki) shubxali operatsiyalar alomatlari mavjud operatsiyalar bajarilganda operatsiya haqidagi qo‘shimcha ma’lumotlarni, jumladan, pul mablag‘lari manbalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish yuzasidan mijozga murojaat qilish hamda taqdim qilingan hujjatlar nusxalarining to‘g‘riligiga gumon yoki boshqa zarurat paydo bo‘lgan taqdirda, tanishish uchun hujjatlarning asl nusxalari taqdim qilinishini talab qilish;
- h) mijoz tomonidan atayin noto‘g‘ri bo‘lgan hujjatlar taqdim etilganda yoki qonun hujjatlariga muvofiq so‘raladigan hujjatlar taqdim etilmaganda, mijoz joylashgan yeri (pochta manzili) bo‘yicha o‘rganish, yuridik shaxs mijozning boshqaruv organi yoki yuridik shaxs nomidan ishonchnomasiz faoliyat ko‘rsatish huquqiga ega bo‘lgan shaxs o‘zining joylashgan yeri (pochta manzili) bo‘yicha mavjud bo‘lmaganida hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan hollarda kredit ajratishni to‘xtatib qo‘yish.

5.2 Moliya agentining majburiyatlari quyidagilar:

- a) Pul mablag‘larini mazkur shartnoma bo‘yicha huquqlar vujudga kelgandan so‘ng hamda vujudga kelgan huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlar mijoz tomonidan taqdim qilingach, 5 (besh)

bank ish kuni davomida mijozning talab qilib olguncha depozit hisob raqamiga o'tkazib berish;

b) Mijozning talabnomadan boshqa shaxs foydasiga voz kechish bilan ta'minlangan qarzidan ortib qolgan summani mijozga qaytaradi.

6. Shartnoma bo'yicha javobgarlik

6.1 Moliya agenti faktoring to'lovlarini asossiz ravishda o'z vaqtida amalga oshirmagan taqdirda to'lov kechikkan har bir kun uchun qarz oluvchiga 0,2 foiz hajmida penya to'laydi. To'lanishi lozim bo'lgan penya miqdori bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan majburiyatning 50 fozidan oshib ketmasligi lozim.

6.2 Mijoz tomonidan shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni o'z vaqtida bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun mazkur shartnoma qiymatiga nisbatan har bir kun uchun moliya agentiga 0,2 % miqdorida penya to'laydi. To'lanishi lozim bo'lgan penya miqdori bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan majburiyatning 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

6.3 Mazkur shartnomaning 5.1.7 bandida nazarda tutilgan hollarda mijoz tomonidan moliya agentiga zarur bo'lgan ma'lumotlarni/hujjatlarni taqdim etmaslik, bajarmaslik, bo'yin tovlash kabi holatlar yuz berganda, moliya agenti moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishni rad etishga, voz kechishga bekor qilishga yoki mavjud aloqa kanallari orqali ogohlantirgan holda shartnomani bir taraflama bekor qilishga haqlidir.

7. Alohida shartlar

7.1 Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish shartlari, talab qilinadigan pul summasi o'zgargan hollarda tomonlar bir-birlariga oldindan xabar beradilar. Bunda faktoring shartnomasiga qo'shimcha kelishuv tuziladi.

7.2 Tomonlarning joylashgan manzili yoki taraflarni shartnomani bajarishga jiddiy ravishda ta'sir qiluvchi ma'lumotlar o'zgarsa, tomonlar bu haqda bir-birlarini xabardor qilishlari shart.

7.3 Shartnoma shartlarini bajarish yuzasidan kelishmovchiliklar chiqqan taqdirda kelishmovchiliklar o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinadi. Yagona kelishuvga erishilmagan hollarda tomonlar bir-birlarini xabardor qilib, vakolatli sudlarga murojaat etishlari mumkin.

7.4 Shartnomaning amal qilishi quyidagi hollarda to'xtalishi yoki bekor qilinishi mumkin:

- a) tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq;
- b) sud qaroriga asosan;
- c) moliya agenti tashabbusi bilan, agar mijoz tomonidan shartnoma shartlari buzilsa.

8. Boshqa shartlar

8.1 Mijozning tegishli so'rovi bankda ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab besh ish kuni ichida mijoz tomonidan berilgan ariza va unga faktoring xizmati ko'rsatilganligini tasdiqlovchi hujjat hamda bir ish kuni ichida faktoring shartnomasi bo'yicha mijoz tomonidan majburiyatlari to'liq bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etiladi.

8.2 Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda ikkinchi tomonning qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish

maqsadida bevosita yoki bilvosita pul mablagʻlari, qimmatliklar yoki xizmatlar taklif qilishi, berishi, taqdim etishi taʼqiqlanadi.

8.3 Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda qaror qabul qilishiga taʼsir oʻtkazish maqsadida shartnomaning boshqa ishtirokchilari tomonidan bevosita yoki bilvosita pul mablagʻlari, qimmatliklar yoki xizmatlar taqdim etish boʻyicha taklifini rad qilishi lozim.

8.4 Agar shartnoma ishtirokchilarida ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bogʻliq korrupsion harakat sodir etilganligi toʻgʻrisida maʼlumot, shubha, shubhaga asos boʻluvchi dalilga ega boʻlsa, bu toʻgʻrisida ikkinchi tomonga yozma shaklda xabar berish majburiyatini oladi.

8.5 Xabarni olgan tomon xaqiqatda korrupsion harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmasligi toʻgʻrisida tasdiqqa ega boʻlgunicha ushbu shartnoma boʻyicha oʻz majburiyatlarini bajarishni toʻxtatib turish huquqiga ega.

8.6 Pora berish evaziga ikkinchi tomon vakili, affillangan shaxsi, xodimi yoki shartnomaning boshqa ishtirokchilarini shartnoma shartlarini bajarishda oʻziga ogʻdirib olgan tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatini oladi.

8.7 Shartnoma bajarilishida taraflar mazkur shartnoma shartlariga hamda Oʻzbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga tayanishadi.

9. Shartnomaning kuchga kirishi, oʻzgartirish va bekor qilish tartibi

9.1 Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega boʻlgan ikki nusxada tuzilib, shartnomaning bir nusxasi moliya agentida, ikkinchi nusxasi mijozda saqlanadi. Mijoz yoki uning vakolatli vakiliga kredit shartnomasi imzolangan kunda shartnomaning bitta asl nusxasini taqdim etiladi.

9.2 Shartnoma taraflar tomonidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va taraflar tomonidan majburiyatlar toʻliq bajarilgunga qadar amal qiladi.

9.3 Shartnomaga kiritilayotgan barcha oʻzgarish va qoʻshimchalar yozma shaklda shartnomaga tegishli oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish haqidagi kelishuvni tuzish orqali rasmiylashtiriladi.

10. Maxfiylik

10.1 Shartnomani tuzish va bajarish vaqtida taraflar bir-biridan olgan barcha maʼlumotlar maxfiy axborotlar deb tan olinadi.

Shartnomani tuzish va shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish chogʻida boshqa tarafning tijorat siri hisoblangan maxfiy axborotlar va maʼlumotlarni axborot egasining yozma rozilgisiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.

Mazkur talab shartnomaning amal qilish muddatiga hamda shartnoma muddati tugagan vaqtdan boshlab 3 yil davomida amal qiladi.

Ushbu talablarni buzgan taraf buning oqibatida ikkinchi tarafga yetkazilgan barcha zararni toʻliq hajmda qoplaydi.

Moliya agenti o'z huquqlari va manfaatlari yoki ularni himoya qilish maqsadida, mijoz moliya agentiga o'zi va to'lovchi to'g'risidagi har qanday ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor etish (topshirish) uchun so'zsiz roziligini bildirgan hisoblanadi.

Mijoz moliya agentiga shartnomada ko'rsatilgan yoki shartnoma tuzilishi va bajarilishida taqdim etgan o'zining barcha ma'lumotlari bilan ishlash va topshirishga mazkur shartnomaga asosan roziligini tasdiqlaydi. Shu jumladan, shartnoma bo'yicha huquqiy vorislik tartibida moliya agentining huquq va majburiyatlari boshqa shaxsga o'tganda, ularni uchinchi shaxsga topshirishga ham rozilik beradi.

11. Fors-major

11.1 Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari - bu tomonlarning irodasi, xohishi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar), ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar), xalqaro, banklararo va bankning elektron to'lov hamda ta'minot tizimidagi nosozlik, bankning dasturiy ta'minot tizimiga qilingan tahdid (uchinchi shaxslar tomonidan qilingan hujumlar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlardir.

Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtda taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnoma bo'yicha o'zaro majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'ladilar.

Yuzaga kelgan fors-major holatlari haqida hamda ushbu holatlar yakunlanganligi haqida taraf ushbu holatlar yuzaga kelgan yoki bartaraf etilgan vaqtdan boshlab, 3 bank kuni ichida bu haqda ikkinchi tarafni yozma ravishda xabardor qilishi lozim.

Fors-major holatlari yuzaga kelganligi yoki bartaraf etilganligi haqidagi xabarnomalar tarafdarda mavjud bo'lgan barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin.

12. Nizolarni hal qilish tartibi

12.1 Taraflar mazkur shartnomani bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo'li bilan hal etadilar.

12.2 O'zaro kelishuv imkoniyati bo'lmaganda, huquqi buzilgan taraf tomonidan yuborilgan talabnoma yoki ogohlantirish xatiga ikkinchi taraf mazkur talabnoma yoki ogohlantirish xatida ko'rsatilgan muddat ichida javob berishi lozim.

12.3 Talabnoma yoki ogohlantirish xati tarafga shaxsan topshirish, elektron pochta manziliga yuborish yoki pochta aloqa xizmati orqali buyurtma xat bilan yuborish yo'li bilan amalga oshiriladi.

12.4 Tinch yo'l bilan hal etilmagan nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda filial/bo'linma joylashgan hududdagi sudda hal etiladi.

13. Taraflarning qayd etish ma'lumotlari va imzolari

Moliya agenti

Manzili _____

MFO _____ INN _____

x\r _____

Bank _____

Telefon _____

Aloqa markazi 0 800 1 200 200
E-mail: contact@hamkorbank.uz

Moliya agenti
vakili _____

M.O'.

Mijoz

Manzili _____

MFO _____ INN _____

x\r _____

Bank _____

Telefon _____

Rahbari _____

Bosh hisobchisi _____